# S H A R T N O M A № 3/01
## ( mahsulotlarni etkazib berish to‘g‘risida).

«20» yanvar 2022 yil. Shahrisabz shahri.

Keyingi o‘rinlarda “Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi” deb ataladigan “Shahrisabz Kesh Baraka” mas’uliyati cheklangan jamiyatining mas’ul xodimi Avlaqulov Otabek orqali bir tomondan, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb ataladigan Shahrisabz shahar Tibbiyot birlashmasi mas’ul xodimi M.Norov ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti.

1.1. Mazkur shartnomada asosida tomonlar o‘rtasida oziq-ovqat va qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini etkazib berish to‘g‘risida xo‘jalik aloqasi urnatiladi.

1.2. “Sotib oluvchi”ning buyurtmasiga asosan mazkur shartnoma bo‘yicha “ Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi” 3836700 (Uch million sakkiz yuz o’ttiz olti ming yetti yuz) so‘mlik oziq-ovqat va qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini etkazib berishni “Sotib oluvchi” esa etkazib berilayotgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik maxsulotlari uchun o‘z vaqtida xaq tulash majburiyatini oladi.

**1.3.**SHartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ularning xar biri bir xil ko‘chga ega. SHartnoma 1 (bir) oy muddatga tuzilgan.

### 2. Mahsulotlarni turi, miqdori, soni, narxi va etkazib berish tartibi.

**2.1.** “Sotib oluvchi” tomonidan buyurtma qilinadigan oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik maxsulotlarining turi, miqdori, soni, narxi va etkazib berish muddatlari tomonlar o‘rtasida o‘zaro kelishiladi va quydagilarni etkazib beradi.

| T\R | Mahsulotlar nomi | O’lchov birligi | Soni | Narxi | So’mma |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mol go’shti | Kg | 63 | 60900 | 3836700 |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | **Jami** | | | | **3836700** |

30% 1151010

2.2.Maxsulotlarining narxi kelishilgan xolda shartnomada kursatilgan so‘mmalarda amalga oshiriladi.

2.3.Maxsulotlarini narxi belgilangan tartibda o‘zgarganda “Sotib oluvchi” to‘lovini oldindan qachon to‘laganidan qat’iy nazar “Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi” maxsulot-larini sotish kunida amalda bo‘lgan narx bilan sotadi.

2.4. “Sotib oluvchi” etkazib berilayotgan maxsulotlari xaqini oldindan 30 foiz qolgan 70 foiz to‘lovni xar oyning oxirgi sanasigacha to‘lab berish majburiyatini oladi.

2.5. “Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi” etkazib berilayotgan maxsulotlari narxi belgilangan tartibda o‘zgarganda “Sotib oluvchi” ni bir xafta oldin yozma ravishda ogoxlantirishi shart.

2.6. Mahsulotlar faqat “SHahrisabz Kesh Baraka” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtomashinada etkazilishi kerak. Mahsulotlar maxsus idishi va qoplarda olib kelinib, idishi va qoplar sotuvchiga qaytarilmaydi.

2.7. Mahsulot etkazib berishning ayrim davrida uni to‘liq etkazib bermagan maxsulot etkazib beruvchi-sotuvchi etkazib berilmagan mahsulotlar miqdorini shartnoma amal qilish muddati doirasidagi keyingi davrda yoki davrlarda to‘ldirishi lozim.

2.8. Sotib oluvchi etkazib berish muddati o‘tkazib yuborilgan mahsulotlarni qabul qilishni rad etishga haqli emas.

2.9. Sotib oluvchi shartnomaga muvofiq etkazib berilgan mahsulotlarning qabul qilinishini ta’minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Sotib oluvchi sotib olgan mahsulotlarni tovarlar etkazib berilganidan keyin darhol ko‘zdan kechirishi, agarda etkazib berish bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tovar etkazib beruvchi-sotuvchini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

## 3. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari

3.1. *Sotuvchining huquqlari:*

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- mahsulotni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga etkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchidan mahsulotni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. *Sotuvchining majburiyatlari:*

- mahsulotni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan mahsulotni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi mahsulotni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi mahsulotni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan mahsulotni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan mahsulotni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- mahsulotni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. *Sotib oluvchining huquqlari:*

- sotib olayotgan mahsulotni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi mahsulotni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi mahsulotni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan mahsulotni topshirishni talab qilish.

3.4. *Sotib oluvchining majburiyatlari:*

- sotib olgan mahsulot haqini o'z vaqtida to'lash;
- mahsulotni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga etkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning mahsulotlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

## 4. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

4.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning mahsulotni ko'zdan kechirish, mahsulotning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortil-gani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, mahsulot uchun to'langan so'mmani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga mahsulot to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi mahsulot sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

4.2. Agarda mahsulot sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan mahsulotni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 4.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan mahsulot sotilganida, agar uning kamchilik-lari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan mahsulotga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan mahsulotga almashtirishni;

mahsulotning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan mahsulotning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Mahsulot uchun to'langan pul so'mmasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan mahsulotdan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yuqolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha so'mmani ushlab qolishga haqli emas.

4.4. Sotuvchi shartnoma bo‘yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to‘lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning mahsulotlar miqdori, sifati, idishi va o‘ralishi to‘g‘risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o‘n kun muddat ichida ma’lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

4.6. Mahsulotlarni to‘liq etkazib bermaganlik yoki etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir etkazib berilmagan yoki etkazib berish muddatlari bo‘zilgan tovarlar umumiy so‘m-masining 1 (bir) % (foizi) miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi.

4.7. SHartnomani bajarishdan bir tomonlama (to‘liqm yoki qisman) bosh tortishga taraflardan biri shartnomani jidddiy buzgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

SHartnomani bo‘zish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatli bo‘lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo‘lmaydigan kamchiliklarga ega bo‘lgan mahsulotlarni etkazib berish;
- mahsulotlarni etkazib berish muddatlarini bir necha bor bo‘zish.

4.8. Agar mahsulot etkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o‘zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnoma bir taraf boshqa tarafdan shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bir taraflama bosh tortish to‘g‘risida bildirish xati olgan paytdan boshlab o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

## 5. Fors-major holatlar

5.1. Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to‘sqinlik qiluvchi engib bo‘lmas kuch ta’siri: mahsulot etkazilayotgan paytda sodir bo‘lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

## 6. Taraflarning rekvizitlari

| «MAHSULOT YETKAZIB BERUVCHI» | «SOTIB OLUVCHI» |
|---|---|
| **«SHAHRISABZ KESH BARAKA» MCHJ** | **Shahrisabz** shahar **Tibbiyot birlashmasi** |
| Shahrisabz shahar, Pillakashlik 23 | Manzil: ipak yuli №108 uy |
| H/r : 20208000805446430001 | Telefon: |
| Trastbank XAB Qarshi filiali | H/r: 10002286010405707310020 54001 |
| MFO: 01109 | INN: 207267234, OKONX: 86100 |
| INN :308936656 | **Moliya vazirligi G’aznachiligi** |
| | H\r: 23402000300100001010 |
| | Bank: Toshkent Markaziy bank |
| | MFO: 00014 INN: 201122919 |
| **Rahbar :** ________ **O.Avloqulov** | ________ **M.Norov** |
| *(vakolatli shaxs F.I.SH. va imzosi)* | *(vakolatli shaxs F.I.SH. va imzosi)* |

Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni asosida urganib, ushbu shartnoma qonun xujjatlariga mos keladi.

**Advokat:- U.S.Jabborov.**

**28.12.2018 yilda berilgan litsenziya KS №:000129.**

Шартномани Қонунларга мослиги ўрганилди
Лиц: 000747 Адв- ... Б Бердиев

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: N070166З4422

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Mahsulot yetkazib berish to'g'risida.

Loyihaning mazmuni: Keyingi o'rinlarda "Mahsulot etkazib beruvchi-sotuvchi" deb ataladigan "Shahrisabz Kesh Baraka" mas'uliyati cheklangan jamiyatining mas'ul xodimi Avlaqulov Otabek orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan Shahrisabz tuman Tibbiyot birlashmasi mas'ul xodimi M.Norov ikkinchi tomondan xamda O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ushbu shartnomani oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va sanoat hamda go'sht maxsulotlari bilan ta'minlash to'g'risida tuzdik.

3. Shartnoma predmeti:

| T\R | Mahsulotlar nomi | O'lchov birligi | Soni | Narxi | So' mma |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mol go'shti | kg | 63 | 60900 | 3836700 |
| | Jami | | | | 3836700 |

bo'lib qiymati **3836700** so'm. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 1-fevral kuniga qadar.

4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shahrisabz shahar tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 18-yanvar kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

*Izoh: Yuriskonsult tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha berilgan xulosaning predmetiga hisob-kitob (moliyaviy) ishlari kirmaydi.*

**Markaz bosh yuriskonsulti** **R.Raxmonov**

*2022-yil «20» yanvar.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ SHAHRI SHAHRISABZ KESH BARAKA MAS'ULIYATI CHEKLANGAM JAMIYAT «14» 01 2022 y 5

Sh Sh T B
(ташкилот)
M Norov га

# ТИЖОРАТ ТАКЛИФ

"ШАҲРИСАБЗ КЕШ БАРАКА" МЧЖ Сизга ёзиб маълум қиламизки Сизнинг № ____________ лотга асосан қуйган эълонингиз бўйича қуйидаги сифатли товарларни таклиф қиламиз.

| № | Товар номи | Улчов бирлиги | Нархи |
|---|---|---|---|
| 1 | Mol goshti | kg | 60900 |
| 2 | | | |
| 3 | | | |
| 4 | | | |
| 5 | | | |
| 6 | | | |
| 7 | | | |
| 8 | | | |
| 9 | | | |
| 10 | | | |
| 11 | | | |
| 12 | | | |
| 13 | | | |
| 14 | | | |
| 15 | | | |
| 16 | | | |
| 17 | | | |
| 18 | | | |
| 19 | | | |
| 20 | | | |
| 21 | | | |
| 22 | | | |
| 23 | | | |
| 24 | | | |
| 25 | | | |
| 26 | | | |
| 27 | | | |
| 28 | | | |
| 29 | | | |
| 30 | | | |
| 31 | | | |
| 32 | | | |
| 33 | | | |
| 34 | | | |
| 35 | | | |
| 36 | | | |
| 37 | | | |
| 38 | | | |

*Шартнома тузилгандан сўнг _____ % тулов олдиндан, қолгаи _____ % тулов махсулот етказиб берилгандан сунг пул кўчириш йўли билан ўтказиб берилади.*

"ШАҲРИСАБЗ КЕШ БАРАКА"
МЧЖ рахбари: ______________ О.Авлокулов

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHRISABZ SHAHRI MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAHRISABZ KESH BARAKA

4466128

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SHAHRISABZ KESH BARAKA" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SHAHRISABZ KESH BARAKA" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

06.10.2021 1048390 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 308936656

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz sh., Pillakashlik MFY Pillakashlik ko'chasi 23 uy,

Guvohnoma: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz sh., DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

Ихтисослашган суйиш
корхонасининг
юридик манзили:
**"Абдурауфов Алишер
Жамшидович" х/к
Шахрисабз шахар
Ипак йули 59 уй**

Хайвонларнинг идентификация килищ
уларни хисобга олиш хисобдан чикариш ва
саклаш тартиби тугрисида НИЗОМга
8 илова

## ХАЙВОН СУЙИЛГАНИ ТУГРИСИДА
## МАЪЛУМОТНОМА Ф-200

№ 1.

Берилди ушбу маълумотнома шу хакдаким, "Абдурауфов Алишер Жамшидович" х/к

замонавий автоматлашган кушхона комплексида

(Ихтисослашган суйиш корхонаси номи)

суйилди. шахрисабз.Кеш.Барака М.Ч.Ж.

1-тоифали гушт ветеринария текширувидан утказилди.

Мол гўшти кейинчалик Ш.К.Б.М.Ч.Ж.га берилди.

Дастлабки курик натижалари:

***НИМТА ОГИРЛИГИ ТУРТБУЛАКЛАРДАН ИБОРАТ*** 213. *кг* иккиюзиун уч уч.

Гуштни куригдан утказиш натижалари:

***ОРГОНАЛЕПТИК КУРИКДАН***

***1-ЛАБАРА ТОРИЯ,2-ЛАБАРА ТОРИЯ КУЗА ТУВИДАН***

Ички аъзоларини курикдан утказиш натижалари:

***ЮКУМЛИВА ЮКУМСИЗ КАСАЛЛИКЛАРДАН ХОЛИ***

Аникланган паразитар касалликлар: ***КУЗАТИЛМАДИ***

Юкумли касалликларга гумон килиниши: ***АНИКЛАНМАДИ***

Амалга оширилган чоралар:

***КОРА МОЛЛАР СУЙИЛДИ, НИМТАЛАНДИ, ТИНДИРИЛДИ ВА СОВУТИЛИБ РЕАЛИЗАЦИЯГА ТОПШИРИЛДИ.***

**"Абдурауфов Алишер Жамшидович" х/к**

**рахбари:** ________ **Д.Худойбердиева**

*«17» Январ 2022 йил*

«ABDURAUFOV ALISHER JAMSHIDOVICH»